

## Yangi zamon, yangi makon shukuhi

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasining 2020-yil 27-oktyabrdagi 02-3041-son bilan tasdiqlangan "Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni mazmun-mohiyati va ahamiyatini keng jamoatchilikka "mahallabay" yetkazishni tashkil etish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 7-sonli majlis bayonida ko'zda tutilgan ishlarni bajarish maqsadida hududlarda "Yangi O'zbekiston - yangicha dunyoqarash" mavzusida tadbirlar tashkil etilmoqda. TIQXMMI Gidravlika va gidroinformatika kafedrasining bir qator professor-o'qituvchilari joriy yilning 16-noyabr kunida O'rta Chirchiq tumanidagi "Kim Pen Xva" MFY hududidagi 59-umumiyl o'rta ta'lif maktabida tashkil etilgan tadbirda ishtirok etdilar. Tadbirda, Kim Pen Xva mahallasi aholisi vakillari, nuroni otaxon va onaxonlar, tuman hokimligi vakillari, xotin-qizlar kengashi a'zolari, mакtab o'qituvchi va o'quvchilari, hamda bir qator faollar qatnashdilar. Mazkur tadbir O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi bilan boshlandi. Tadbir o'ta ko'tarinki kayfiyatda va karantin qoidalariga rioya qilgan holda o'tkazildi. Tadbirning ochilishida "Gidravlika va gidroinformatika" kafedrasи mudiri, prof. A.Arifjanov so'zga chiqib yurtimizda keyingi yillarda olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy sohalardagi islohotlarning tub mohiyati haqida tadbir ishtirokchilariga yana bir bor gapirib o'tdilar. Ma'ruzachi keyingi yillarda yurtimizda ko'pgina sohalarda qo'lga qiritilayotgan ulkan yutuqlarga alohida-alohida to'xtab o'tdi. Taqdimot bilan boyitilgan ushbu ma'ruza tinglovchilarda katta taassurot qoldirdi.



Tadbirda 59-maktab direktori B.A.Imarova, Kim Pen Xva MFY raisi L.A.Shinlar xam o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi. Tadbir badiiy qismga ulanib ketdi. Badiiy qismda O'rta Chirchiq tumani badiiy havaskorlari va 59-maktab badiiy to'garaklarining ishtirokchilari hamda bir qator sportchi yoshlar o'z chiqishlari bilan yig'ilganlarni xushnud qildilar. Tadbirda o'zbek, qozoq, tojik, rus, qirg'iz, qoraqalpoq, koreys va boshqa bir qancha millat vakillari ishtirok etib, o'z ona tillarida kuy, qo'shiqlar ijro etib, she'rlar o'qidilar. Tadbirda "Bilimdon- zukkolar" bellashuvi o'tkazildi. Bellashuv g'oliblariga va tadbirning faol ishtirokchilariga turli-xil esdalik sovg'alari ulashildi. Tadbir juda ko'tarinki ruhda va yuksak saviyada o'tkazildi.



TIQXMMI matbuot xizmati